

INGLIZ TILI VA O'ZBEK TILLARIDA BOG'LOMCHI QO'SHIMCHALAR TASNIFI

A.J. Ataboyev

*Ingliz tili filologiyasi o'qitish metodikasi va tajjimonshunoslik fakulteti dekani
v.v.b. dotsent PhD*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Bog'lovchining qo'llanishiga ko'ra turlari haqida, bog'lovchi qo'shimchalar haqida, teng bog'lovchilar, ergashtiruvchi bog'lovchilar haqida, ingliz tilini o'rganish muhim vazifalardan biri biri bo'layotganligi haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *bog'lovchilar, qo'shimchalar, rivojlantirish, loyiha, islohot, mamlakat, ingliz tili, o'rganish.*

Mustaqillik yillarida O'zbekiston hamon ingliz tilini bilish darajasi past bo'lgan davlat bo'lib qoldi. Shuning uchun ham mamlakatda yangi loyihalar va islohotlar amalga oshirilmogda. Bu sohada natijalarga erishgan O'zbekiston, nihoyat, rivojlanishning yangi bosqichiga o'tishi mumkin bo'ladi. Xalq ta'limi vazirligi maktablarda ta'lim sifatini yaxshilash uchun qo'lidan kelganicha harakat qilmoqda. Bu borada so'nggi yillarda xalqaro tashkilotlar bilan ko'plab loyihalar amalga oshirildi. Hozirgi kunga kelib ingliz tilini o'rganish zamon talablaridan biri bo'lib qolmoqda. Ingliz tili maktab, bog'cha va oliy ta'limlarda keng o'rganilmoqda.

Ana endi ingliz tili va o'zbek tilidagi bog'lovchilarni farqini ko'rib chiqsak maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bog'lovchining qo'llanishiga ko'ra turlari. O'zbek tilida gapda qo'llanilishiga ko'ra bog'lovchi yakka, takror, yakka va takror qo'llanadigan bog'lovchiga bo'linadi. Yakka qo'llanadigan bog'lovchiga *a, va, hamda, ammo, lekin, biroq, balki, holbuki, vaholanki, gar, agar, agarda, basharti, chunki, garchi, garchand, go'yo, go'yoki, ki/kim, esa, ya'ni*; takror qo'llanadigan bog'lovchilarga *damdami, ba'zanba'zan, hamham, birbir, xohxoh, gohgoh*; yakka va takror qo'llanadigan bog'lovchiga *yo, yoki* bog'lovchisi kiritiladi. Bog'lovchining vazifasiga ko'ra turlari. Bog'lovchi gap bo'laklari yoki qo'shma gap qismlarini qanday munosabatda bog'lashiga ko'ra **teng bog'lovchi** va **ergashtiruvchi bog'lovchi**ga bo'linadi.

Teng bog'lovchilar gapning uyushiq bo'laklari yoki qo'shma gap tarkibidagi teng huquqli sodda gaplarni bog'laydi. Qoidaga misol tariqasida quyidagilarni aytishimiz mumkin: *darsliklar va qo'llanmalar. Shamol tindi va hamma uyquga ketdi. Kecha sokin va iliq edi. Quyosh chiqdi, lekin havo isimadi.*

Teng bog'lovchi ma'nosiga ko'ra quyidagi turga bo'linadi:

- 1) biriktiruv: *va, hamda, bilan* (ko'makchi-bog'lovchi), *ham, u//yu. da* (yuklama-bog'lovchi);
- 2) zidlov: *ammo, lekin, biroq, esa, balki, holbuki, vaholanki, a;*
- 3) ayiruv: *yo//yoki//yoxud//yoinki, yoyo, gohgoh, damdami, ba'zanba'zan, birbir, xohxoh;*
- 4) inkor bog'lovchisi: *na..., na...*

Ergashtiruvchi bog`lovchi asosan qo`shma gap tarkibidagi ergash gapni bosh gapga bog`laydi: *Endi qattiq o`qimasak bo`lmaydi, negaki test sinovlariga yaqin qolmoqda.*

Ma`nosiga ko`ra quyidagi turlarga bo`linadi:

1) aniqlov: *ya`ni, ki//kim;*

2) sabab: *chunki, negaki, sababki, zeroki;*

3) shart: *agar//gar//agarda, basharti, mabodo, garchi// garchand, modomiki.*

Bog`lovchining tabiatiga ko`ra turi 2turga bo`linadi:

1) **sof bog`lovchi;**

2) **vazifadosh bog`lovchi.**

Faqat bog`lovchiga xos vazifa bajaruvchi yordamchi so`z sof bog`lovchi deyiladi: *va, lekin, agar.*

Bir o`rinda bog`lovchi, boshqa o`rinda ko`makchi, yuklama, modal so`z yoki biror mustaqil so`z bo`lib keladigan yordamchi vazifadosh bog`lovchi hisoblanadi:

- *bilan* ko`makchisi: *olma bilan anor;*

- *na...na* yuklamasi: *na otam bor, na onam bor;*

- *balki* modal so`zi: *bu gaplar qulog`imga kirmas, balki battar g`ashimga tegar edi.*

- *bir soni*: *bir kulasan, bir yig`laysan.*

Shuningdek, *-u (yu), -da, ham, -a* yuklamasi, *ba`zan* ravishi ham bog`lovchi vazifasida kelishi mumkin.

Biz o`zbek tilida bog`lovchilar qanday bog`lanishi va qanday qo`shimlar bilan bog`lanishi haqida ma`lumotga ega bo`ldik. Ana ingliz tilida boglovchilar qanday bo`lishi haqida gaplashamiz.

Bog`lovchi deb ikki va undan ortiq so`zlar, iboralar, gaplarni bog`lovchi so`zlarga aytiladi.

There are spoons and forks on the table.

Ushbu misolimizda and so`zi qoshiq va vilkalarni bog`lab kelgan.

Me cell phone is either on the tble or in the drawer.

His mother won`t be there, but his father might.

Biz asosan, bog`lovchilardan 2 ta gapni bir-biriga bog`lash uchun ishlatamiz. Ular 2 ta qisqa gaplardan bitta uzun gapni yasaydi:

Agar birinchi gapdagi shaxs bilan ikkinchi shaxs bitta bo`lsa, ikkinchi gapda shaxs(we,she)ni takrorlash zarur emas.

• Biz biror narsani sanayotganimizda vergullardan foydalanamiz. Oxirgi gapdan oldingina and qo`yiladi:

• Men uyga keldim, nimadir yedim, kursiga o`tirdim va uxlab qoldim.

• Karen is at work, Sue has gone shopping and Chris is playing football.

• Karen ishda, Syu xarid qilishga ketgan va Kris futbol o`ynayapti.

Ingliz tilida bog`lovchilarning 4 turi mavjud.

-coordinating conjunctions - and, or, but, so, yet, for, nor

Is it Tuesday or Wednesday today?

-subordinating conjunctions- because, after, if, since

After I left you I went to the post office

- correlative conjunctions- either...or..., both... and., neither.... nor..

Neither my mother nor my father went to university

Conjunctive adverbs- however, therefore, in addition etc.

He was feeling bad however he went to work

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YHATI:

1. Bekmuratova U. B. “Ingliz tilini o’qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish”
2. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 dekabrdaqi «CHet tillarini o’rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida»gi PQ-1875-sonli qarori.
3. Xoshimov O‘. Yoqubov I. Ingliz tili o’qitish metodikasi. T., - 2003